


# SIRDARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA‘LUMOT

2021- yil 1- noyabr holatiga ko‘ra  
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



*Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.*

*Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.*

*Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalarini tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.*


*Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.*

*Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021-yil 1-noyabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.*

# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)


3



Mamlakatimizda qulay ish-bilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



# Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni


(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha  
2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

4




## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-oktabr oyida)



# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(yanvar-oktabr oyida, birlikda)




# Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar




(2021-yil 1-noyabr holatiga ko‘ra, birlikda)



Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **4,8** foizga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar




# Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **12,1 foizga oshdi**



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



**102**

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

**2 143**

Ishlab chiqarish sanoati

**20**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

**38**


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

2021- yil 1 - noyabr holatiga ko'ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlarini soni 2 303 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 112,1 % ga oshdi.

Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlarini ko'payishining asosiy omili – (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 113,3 % ga (jami sanoatdagi ulushi 93,1 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 101,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 4,4 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 100,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,9 %) o'sishidir va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning 7,3 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,6 %) ko'payishiga sabab bo'ldi.




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korrxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **9,7** foizga oshdi




## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




**9,7** foizga oshdi



## Mikrofimlar




## Kichik korrxonalar




## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar



**14,2** foizga oshdi




## Oilaviy korrxonalar




## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korrxonalar soni



**20,0** foizga oshdi



## Xususiy korrxonalar




**5,9** foizga kamaygan






# Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2021-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




## Mikrofirmalar




## Kichik korxonalar




## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




## Oilaviy korxonalar



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni





## Xususiy korxonalar





**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni**  
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2021- yil 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)





Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra 398 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 38 taga yoki 10,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 371 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 63 taga yoki 20,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yil yanvar-oktabr oyida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 55 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 101 taga yoki 64,7 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.


## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni


(2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra 11 597 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 508 taga yoki 14,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 10 896 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 335 taga yoki 14,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yil yanvar-oktabr oyida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 802 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 425 taga yoki 20,1 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.





Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2021-yil 1-noyabr holatiga ko'ra 193 tani tashkil etib, ulardan 184 tasi yoki 95,3 % i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 1 taga yoki 0,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2021-yilning yanvar-oktabr oylarida Sirdaryo viloyatida 16 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2021-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




**Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,4 foizga oshdi**




### Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



### Mikrofirmalar




### Kichik korxonalar



# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2021- yil 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

13




## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2021- yil 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil
<b>Jami</b>	<b>83</b>	<b>106</b>	<b>149</b>	<b>188</b>	<b>184</b>
<i>shu jumladan:</i>					
<b>Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	4	9	10	16	18
<b>Sanoat</b>	61	72	100	118	118
<b>Qurilish</b>	3	5	8	10	12
<b>Savdo</b>	9	11	20	27	23
<b>Tashish va saqlash</b>	3	4	5	4	4
<b>Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar</b>	-	1		2	1
<b>Axborot va aloqa</b>	-	-	2	2	1
<b>Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish</b>	-	-	-	-	-
<b>Boshqa turlar</b>	3	4	4	9	7

# Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



# Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

15


	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>184</b>	<b>118</b>	<b>66</b>
<b>Guliston sh.</b>	<b>45</b>	<b>27</b>	<b>18</b>
<b>Yangiyer sh.</b>	<b>23</b>	<b>12</b>	<b>11</b>
<b>Shirin sh.</b>	<b>5</b>	<b>5</b>	<b>-</b>
<b>Oqoltin</b>	<b>4</b>	<b>1</b>	<b>3</b>
<b>Boyovut</b>	<b>8</b>	<b>3</b>	<b>5</b>
<b>Sayxunobod</b>	<b>10</b>	<b>6</b>	<b>4</b>
<b>Guliston</b>	<b>5</b>	<b>4</b>	<b>1</b>
<b>Sardoba</b>	<b>9</b>	<b>6</b>	<b>3</b>
<b>Mirzaobod</b>	<b>15</b>	<b>9</b>	<b>6</b>
<b>Sirdaryo</b>	<b>53</b>	<b>43</b>	<b>10</b>
<b>Xovos</b>	<b>7</b>	<b>2</b>	<b>5</b>

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Sirdaryo tumanida 53 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 28,8 %), Guliston shahrida 45 ta (24,5 %), Yangiyer shahrida 23 ta (12,5 %), Mirzaobod tumanida 15 ta (8,2 %) hamda Sayxunobod tumanida 10 tani (5,4 %) tashkil etadi.

# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

16




2021-yil 1-noyabr holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Guliston shahri (28,7 %), Yangiyer shahri (6,8 %), Shirin shahri (2,6 %), Sirdaryo (14,1 %), Sayxunobod (7,8 %), Boyovut (7,9 %), Guliston (7,4 %), Mirzaobod (8,4 %), Oqoltin (5,6 %), Xovos (5,5 %), Sardoba (5,2 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021-yil yanvar-oktabr oyida, birlikda)


2021-yil yanvar-oktabr oyida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Guliston shahri (26,5 %), Yangiyer shahri (6,2 %), Shirin shahri (3,2 %), Sirdaryo (14,4 %), Sayxunobod (7,2 %), Boyovut (8,1 %), Guliston (6,7 %), Mirzaobod (9,1 %), Oqoltin (6,6 %), Xovos (5,4 %), Sardoba (6,6 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.






# Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni

(2021-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2021-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



2021-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Guliston shahri (25,9 %), Yangiyer shahri (7,7 %), Shirin shahri (2,4 %), Sirdaryo (16,0 %), Sayxunobod (8,0 %), Boyovut (7,2 %), Guliston (6,8 %), Mirzaobod (9,0 %), Oqoltin (5,7 %), Xovos (5,8 %) va Sardoba (5,5 %) tumanlari hissalariga tegishli.

## Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning qo'shma korxonaga va xorijiy korxonalariga taqsimlanishi (2021- yil 1-noyabr holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)


18



2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

# Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar bo'yicha soni


(2021- yilning yanvar-oktabr oyida, birlikda)




2021-yilning yanvar-oktabr oyida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar, hududlar kesimida taqsimlanganda Guliston shahri (20,0 %), Yangiyer shahri (9,1 %), Shirin shahri (5,5 %), Sirdaryo (16,4 %), Sayxunobod (10,9 %), Boyovut (3,6 %), Guliston (16,4 %), Mirzaobod (14,5 %), Xovos (3,6 %) tumanlari ulushiga to'g'ri keladi.

## Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2021- yilning yanvar-oktabr oyida, birlikda)



O'tgan yilga nisbatan % da



## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** - axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) va Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasining [www.sirstat.uz](http://www.sirstat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi**  
**Statistik registrlarni yuritish bo'limi**  
**Tel.: (67) 236-86-37**